

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA  
KIRUVCHILAR UCHUN**

**SAVOLLAR KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_  
F.I.O. \_\_\_\_\_ Imzo \_\_\_\_\_

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

**Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.**

**Kitob tipi: 32**

FANLAR:

*Blok 1: Ona tili va adabiyot*

*Blok 2: Biologiya*

*Blok 3: Kimyo*

Savollar kitobi raqami: **1701344**

Toshkent – 2017

## ONA TILI VA ADABIYOT

1. Faqat bitta tuyg'u uxlamas biroq.  
Uning to'shagida mix bor toabad.  
Uni qiyinab yotar omonsiz so'roq,  
Faqat uxlamaydi birgina hasad.
- She'riy parchadagi nechta yasama so'zning yasalish asosi omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan fe'lidan iborat?
- A) 3 B) 2 C) 1 D) 4
2. Qaysi gapda uch xil gap bo'lagi turdosh ot bilan ifodalangan?  
A) Erkin yosh avlodlar senga zo'r qanot.  
B) Samiyaxon kutubxonimizning faol kitobxonlaridan biridir.  
C) O'lmasning onasi uyda do'ppi tikadi.  
D) Shohim, Alisherga ozor bermang, u buyuk odam.
3. Qaysi javobdag'i aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap tarkibida ikki o'rinda fonetik o'zgarish yuz bergan?  
A) Odam qancha ko'p bilsa, yashashi shuncha qiyinlashadi.  
B) Kimki oilani muqaddas bilmasa, uning uchun muqaddas narsaning o'zi yo'q.  
C) Kim ko'zguga ko'p qarasa, xotirasi susayib ketarkan.  
D) Kimki nuqul o'tmishidan nolisa uning kelajagi ham barbod bo'ladi.
4. Qaysi gapda barcha yopiq bo'g'inlar faqat til undoshlari bilan tugagan?  
A) Tursun tomda tursin.  
B) Eng buyuk jasorat bu - ma'naviy jasoratdir.  
C) Guvoh sudga ketdi, qo'shnim sutga ketdi.  
D) "Hamma balo tildan keladi", - deydi bobom.
5. Nutqimizda portlovchi jarangsiz til undoshlari soni nechta?  
A) Ita B) 2ta C) 3ta D) 4ta
6. **Gapirganda avvalgi baland ovoz bilan emas, shivirlab gapirdi.**  
Ushbu gapdag'i yasama so'zlar haqida berilgan noto'g'ri fikrni aniqlang.  
A) ravishdan sifat yasalgan  
B) taqlid so'zdan fe'l yasalgan  
C) otdan fe'l yasalgan  
D) sifatdan ot yasalgan
7. Sabab holi sifatdosh bilan ifodalangan egasi ma'lum gapni toping.  
A) Tuman quyuqligidan yo'l zo'rg'a ko'rinar edi.  
B) Shamol tinavermagach, tog'ga chiqishni goldirdi.  
C) Boshqa hech narsani yo'qligi uchun bitta-yu bitta ho'kizini berib yuboribdi.  
D) Uyalganidan bir zumda qizarib-bo'zarib ketdi va qadamini tezlatdi.
8. Qaysi javobdag'i barcha fe'llarning asosi omonimlik xususiyatiga ega?  
A) Behudaga dori ichishni qo'ysangiz, dardingiz arib, sog'ayarmidizingiz?  
B) Bog'bon uni so'ligan deb gumon qildi-yu, yulib tashladi.  
C) Jayron tog'dan tog'ga o'tib, qayerga borishini bilmasdi.  
D) Karimbek mashinani yo'lga chiqarib, qishloq tomon yurdi.
9. Kal ketaverdi, ketaverdi, charchab, suvsab bir daraxt soyasida yotib uxladi.  
(Ertakdan)  
Ushbu gap tarkibida asosi ham omonimlik, ham paronimlik xususiyatiga ega so'z necha o'rinda qatnashgan?  
A) 3 B) 1 C) 2 D) 4
10. Quyida berilgan necha so'zning ma'nosi metonimiya usulida ko'chishi mumkin?  
**samovar, ko'zoynak, zal, qadah**  
A) 3ta B) 2ta C) 1ta D) 4ta
11. Agarda yolg'onдан bersa guvohlik.  
Uning ham gunohin kechirmsa Xoliq.  
Shu to'rtta gunohdan kim bo'lsa forig',  
Bilingki, ularning manglayi yorug'.  
Ushbu she'riy parchada olmoshlarning necha ma'nio turi qatnashgan?  
A) 1 B) 3 C) 4 D) 2
12. Ko'makchi, bog'lovchi, yuklamaga oid birliklar qatnashgan gapni belgilang.  
A) Yozuvchining vazifasi faqat yaxshi asarlar yozish, xalq dilining tarjimonini bo'lish bilan cheklanmaydi.  
B) Yuragini ezib turgan bu ezgin o'y-u fikrlar bilan chalg'ib, kech tushganini ham sezmay qolibdi.  
C) Boshqalar qatorini o'zbek adabiyotida millatning o'ziga xos olami chuqur hamda ishonarli tasvirlangan asarlar bor.

- D) Yaxshilarni mahv etgan tuhmat va ig'vordan oldin yomonlarning chirkin qalbida hasad o'ti yongan.
13. Yuklama qatnashgan gapni aniqlang.  
A) Hunarsiz kishilarda hech qachon xosiyat bo'lmaydi.  
B) Na qo'shiq, na kulgu, na churq etgan ovoz eshitilardi.  
C) Bo'rondan so'ng Olimjon brigadasidagi ishlar ozaymadi balki ko'paydi.  
D) Bu harakatlarning natjisaga faqat o'zi ishondi.
14. Yordamchi so'z turkumlarining faqat bir turiga, oid birliklar uch o'rinda qo'llangan gapni toping.  
A) Ko'z oldimda sobit turar faqat shu Vatan, Kulbasi ham kenglik qadar chulg'aydi meni.  
B) Faqat o'tmish bilan yashamas inson, Garchand bo'lolmaydi undan hech ozod.  
C) Dildan o'chiraylik g'amning otini, Bahor ham baxt kabi axir yagona.  
D) Mana shu o'zin-kulgular, qo'shiq va kuyilar yosh-u qarining diliiga orom hamda quvonch bag'ishlagan lola sayli yaqinda bo'lgan edi.
15. Qo'shma gap berilgan javobni toping.  
A) Odam bolasi elektr simi emaski, musbat yo manfiyga ajratsang.  
B) Ish ko'pligi-yu, vaqt yo'qligidan nolimang.  
C) Aytishlaricha, ko'zguda inson quvvatini so'rib olish xususiyati bor ekan.  
D) Insoniyat orol bo'lib emas, qit'a bo'lib yashashni o'rganmog'i lozim.
16. Barcha so'zlar to'g'ri yozilgan javobni belgilang.  
A) xatto, muxojir, zaxmatkash  
B) hatto, muhojir, zaxmatkash  
C) hatto, muhojir, zahmatkash  
D) xatto, muhojir, zahmatkash
17. Quyidagi berilgan qaysi gaplarda tire(lar) tushirib qoldirilgan?  
1) Bu qarorni amalga oshirishdagi bиринчи qadam o'qish, o'qiganda ham a'lo o'qish. 2. Rasadxona zimiston bo'lsa ham, Ali Qushchining o'tkir ko'zlar darrov ko'rdi poygakda bir kimsa gavdasi bilan eshkini to'sib, qaqqayib turardi. 3. Oltita bolani bag'riga olgan Mahkam taqachi shu. 4. Mingbuluoq o'zi yaxshi, suvi serob, lekin u qarovsiz.  
A) 3, 4 B) 1, 3 C) 1, 2, 3 D) 2, 3
18. Egasi shaxs oti bilan ifogalangan gani aniqlang.  
A) Kitobxoni yo'q asar egasi tashlab ketgan uyga o'xshab fayzsizdir.  
B) Qalbi qog'ozdek oppoq, qog'ozdek lovullab yonadigan odamgina chinakam san'at asari yarata oladi.  
C) Yaxshi farzand ota umrini davom ettirishi azaldan mal'um, yaxshi asar esa yozuvchi umrini davom ettiradi.  
D) Haqiqiy haykaltarosh o'lik toshdan yasagan haykal tirikka o'xshaydi.
19. - Bolajonim, o'z umrimni ilm sirlarini o'rganishga sarf qildim. Ilm nuri bilan mushkul tugunlarni yechdim, ammo o'limga davo topolmadim.  
Keltirilgan parchadagi aniqlovchili birikmalar sonini toping.  
A) 4 B) 3 C) 2 D) 1
20. Yaproqlar tebranar she'r maqomiga,  
Chechaklar jimgina egib turar bosh.  
Marmar sarhovuzning kumush jomiga  
Shoir ko'zlaridan oqib tushar yosh.  
Ushbu she'riy parchada moslashuvli tobe bog'lanishlar sonini aniqlang.  
A) 4 B) 3 C) 5 D) 6
21. Ayol - go'zallik, nafosat va muhabbat timsoli, ayol bilan bog'liq tuyg'ular Sharqa qadimdan qadirlanib kelgan.  
Ushbu gapdag'i moslashuvli tobe bog'lanishlar sonini aniqlang.  
A) 5ta B) 2ta C) 3ta D) 4ta
22. Shakl yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan so'z yasovchi qo'shimcha(lar) qatnashgan gaplarni aniqlang.  
1. Vatan - kelinchakning orzulari qanotida parvoz etib kirgan eshigi.  
2. Qizcha qo'g'irchog'ini astagina yotqizib qo'ydi.  
3. Chaqin bo'lma, bo'lma guldurak.  
4. Sotqinlarga safimizda o'rin yo'q.  
A) 3, 4 B) 1, 3 C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 3
23. Quyidagi qaysi fe'llarning yetakchi morfemasi ot turkumiga oid so'z bilan omonim bo'la oladi?  
1) erimoq; 2) yashirinmoq; 3) chaqmoq; 4) saqlamoq; 5) qopmoq  
A) 3, 4, 5 B) 1, 5 C) 1, 4, 5 D) 1, 2, 3, 5

24. Berilgan qo'shimchalardan qaysilar ismning va fe'lning munosabat shakli sifatida o'zaro omonim bo'la oladi?  
 1) -sa, 2) -k, 3) -m, 4) -ng, 5) -miz, 6) -ing, 7) -ngiz  
 A) 2, 3, 5, 6 B) 1, 3, 5, 6 C) 1, 2, 4, 7 D) 3, 4, 5, 7
25. Quyidagi misralar qaysi shoir qalamiga mansub?  
 Muhabbat, ey go'zal iztirob,  
 Ey ko'hna dard, ey ko'nha tuyg'u.  
 Ko'kraginiq qo'lingni tirab,  
 Yuragimni to'kib qo'yding-ku.  
 A) Abdulla Oripov B) Erkin Vohidov C) Muhammad Yusuf D) Shavkat Rahmon
26. Yo'lldan oyna topib olgan zangi haqidagi naql kimning qaysi asarida uchraydi?  
 A) Sa'diy Sheroziyning "Bo'ston" asarida  
 B) Xo'janazar Huvaydoning "Rohati dil" asarida  
 C) Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida  
 D) Xojanining "Gulzor" asarida
27. Qo'lingdan kelguncha karam qil, karam,  
 Karamli bo'limgay hech kimsadan kam.  
 Ushbu pand-nasihat Sa'diy ijodiga mansub qaysi hikoyada uchraydi?  
 A) Sahroda tashna itga duch kelgan kishi haqidagi hikoyat  
 B) Bo'zdan libos kiyib yuruvchi podsho haqidagi hikoyat  
 C) Hayit kuni adashib qolgan bola haqidagi hikoyat  
 D) O'g'Iining qilmishi uchun zindonga tushgan darvesh haqidagi hikoyat
28. O'ta mavhum tuyg'u bo'lgan sevgini "yorilmagan yaraday" deya tasvirlanan?  
 A) Muhammad Yusuf B) Usmon Nosir C) Abdulla Oripov D) Erkin Vohidov
29. Asqad Muxtorning bir adabiy turga mansub bo'lмаган asarlari berilgan javobni aniqlang.  
 A) "Totli damlar", "Jar yogasidagi chaqmoq"  
 B) "Buxoroning jinko'chalar", "To'qqizinchi palata"  
 C) "Yaxshilikka yaxshilik", "Mardlik cho'qqisi"  
 D) "Kumush tola", "Davr mening taqdirimda"
30. P.Qodirovning "Avlodlar dovon" asarida Sherxon kimning yordamida hiyla-bo'htonlar yo'li bilan bir zarbada ham Humoyunning eng sadoqatli kutvoli bo'lgan amir Bahulni mahv etish, ham Hindol bilan akasining do'stligini adovatga aylantirishga erishgan edi?  
 A) La'l Chand B) Havaxxon C) Alvaro Pakavira D) Bikromadit Gaur
31. Shoira Anbar Otin qaysi mashhur mumtoz shoiramizning jiyani bo'lgan?  
 A) Maknuna B) Dilshodi Barno C) Nodirabegim D) Jahon otin Uvaysiy
32. Cho'lpion "Kecha va kunduz" romanida qanday gapni "... haligi ikki boy bilan Abdusamat kaptarlarini qanoniga ilib, shamolning qo'lting'igam qistirib, yomg'irlarning tomchisiga joylab, bulutning qo'yniga solib uchiradi, har bir uchgan qarg'a shuni aytilb qog'ilaydi...?", deb ta'riflaydi?  
 A) "Akbarali mingboshi yana uylanibdi"  
 B) "Akbarali mingboshining ustidan ariza tushibdi"  
 C) "Akbarali mingboshining xotini Sibirga surgun qilinibdi"  
 D) "Akbarali mingboshi amalidan bekor bo'libdi"
33. Mayjud urf – odatlarni buzib, qaynonasini so'ngi yo'lga kuzatgan ayol obrazi qaysi asarda mavjud?"  
 A) "Kecha va kunduz" (Cho'lpion)  
 B) "Ruh bilan suhbat" (S. Zunnunova)  
 C) "Qochoq" (S. Ahmad)  
 D) "Urushning so'ngi qurban" (O'.Hoshimov)
34. Komil Xorazmiy hayoti va ijodiga tegishli ma'lumotni belgilang.  
 A) Adabiyotimiz tarixida juda kam uchraydigan musoviyattaraafayn shaklida she'r yozgan.  
 B) Sharq musiqasining yozuvdagi ifodasi uchun "Tanbur chizig'i" deb nom olgan notalar tizimini kashf qilgan.  
 C) Uning "Sabog'a xitob" she'reti Istambulda yozilgan.  
 D) Otasi Akmal taxallusi bilan she'rlar yozgan.
35. Quyidagi keltirilgan parchda qaysi asar qahramonining holati tasvirlangan?  
 "Ilgari kampir ba'zi – ba'zida bu kiyimlarni hidlab yig'lardi. Endi ko'ksidagi muz uni yig'lashga qo'ymadidi. U hovli o'rtasiga xazon to'plab, gugurt chaqdi. Gurullab yonayotgan gulhangasi ...ning kiyimlarini birma – bir tashlay boshladidi. Gulhanda ... ning bolaligi yonardi".  
 A) "Qorako'z Majnun" da Saodat aya  
 B) "Ko'k eshik" da Zuhra kampir  
 C) "Ufq" da Jannat xola  
 D) "Chinor" da Sharofat xola
36. Qilibdru mahliqolarning yuzini Latofat mus'hafiq'a oya navro'z.  
 1) tashxis; 2) tardi aks; 3) tashbeh; 4) tazod; 5) tarse'  
 A) I, 3 B) I, 5 C) I, 2, 5 D) 3, 4

**BIOLOGIYA**

37. Dengiz cho'chqalarida yungning kaltaligi uzunligi ustidan, dag'alligi normalligi ustidan dominantlik qilib, bu genlar birikkan holda irlsylanadi. Digeterozigotali cho'chqalar bilan tahliili chatishirish o'tkazilganda olingen 1300 ta organizmdan 260 tasi genotip bo'yicha ota-onaga o'xshamagan formalarni tashkil qildi. Chalkashuv foizini (%) aniqlang.  
 A) 20 B) 40 C) 60 D) 80
38. Makkajo'xorida barglarning burishganligi va poyaning past bo'lishi retsessiv belgilari hisoblanib, bitta xromosomada joylashgan. Barglari silliq va normal uzunlikdagi o'simlik barglari burishgan past bo'lyi o'simlik bilan chatishirilib 1200 ta o'simlik olindi. Shundan 216 ta organizm ota-onaning ayrim belgilarni o'zida mujassamlashtirilgan. Retsessiv belgiga ega bo'lgan organizmlar sonini aniqlang.  
 A) 492 B) 984 C) 600 D) 108
39. Retinoblastoma ko'zning onkologik kasalligi bo'lib, erkaklar va ayollarda bir xilda uchraydi. Kasal ota-onalardan kasal farzandlarning tug'ilish ehtimolligi 75% yoki 100% bo'ladi. Otasi gomozigota kasal, onasi sog' bo'lgan qiz sog'lam yigitga turmushga chiqsa, farzandlarning 50% i kasal tug'ildi. Ushbu kasallikning irlsylanish qanday genga bog'liq?  
 A) autosomaga birikkan dominant genga  
 B) autosomaga birikkan retsessiv genga  
 C) X-xromosomaga birikkan dominant genga  
 D) X-xromosomaga birikkan retsessiv genga
40. Ma'lum bir DNK molekulasi 114 ta nukleotiddan iborat, undagi vodorod bog'lari soni shu DNK molekulasi uchun C nukleotidlari sonidan 4 marta ko'p bo'lsa, DNK tarkibidagi vodorod bog'lari sonini toping.  
 A) 126 B) 152 C) 180 D) 138
41. Energetik almashinuvining anaerob bosqichda 560 kJ energiya ATF da to'planadi. Aerob bosqichda esa 5800 kJ energiya issiqlik sifatida tarqaladi. Energetik almashinuvdagagi jami energiya miqdorini (kJ) toping. (birinchи bosqichda 60 kJ energiya ajralgan)  
 A) 14400 B) 14460 C) 15500 D) 15520
42. Ma'lum bir hayvon embrioni 3 marta meridinal bo'linganda hosil bo'lgan blostomerlardagi jami xromosomalar soni 4 marta ekvatorial bo'linishidan so'ng hosil bo'lgan blostomerdagagi xromosomalar sonidan 15872 taga kam bo'lsa, ushbu organizm spermatozoidida nechta xromosoma bo'lishini aniqlang?  
 A) 16 B) 32 C) 64 D) 30
43. Sistematislik birliklari ketma-ketligi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.  
 A) nutriya - suvsarsimonlar oilasi - yirtqich sutevizuvchilar turkumi - sutevizuvchilar sinfi - umurtqalilar kenja tipi - xordalilar tipi  
 B) korsak - suvsarsimonlar oilasi - yirtqich sutevizuvchilar turkumi - yo'ldoshlilar kenja sinfi - sutevizuvchilar sinfi - umurtqalilar tipi  
 C) ondatra - suvsarsimonlar oilasi - yirtqich sutevizuvchilar turkumi - sutevizuvchilar sinfi - umurtqalilar kenja tipi - xordalilar tipi  
 D) norka - suvsarsimonlar oilasi - yirtqich sutevizuvchilar turkumi - sutevizuvchilar sinfi - umurtqalilar kenja tipi - xordalilar tipi
44. Hayvonlarning kelib chiqishi haqidagi to'g'ri fikrni belgilang.  
 A) Erkin yashovchi qadimgi yassi chuvalchanglardan ko'p tuklilar, ulardan esa kam tuklilar kelib chiqqan  
 B) Qadimgi ichaksiz kiprikli chuvalchanglar parazit yashashga moslanishi tuflay so'rg'ichililar, ulardan esa tasmasimon chuvalchanglar kelib chiqqan  
 C) Qadimgi koloniya bo'lib yashovchi bir hujayrali xivchinilardan

- gidrasimonlar, korall poliplari va meduzalar kelib chiqgan.*  
 D) *Qadimgi ichaksiz yassi chuvalchanglardan to'garak chuvalchanglar, ulardan halqali chuvalchanglar kelib chiqgan.*
45. Paleozoy (a) va mezozoy (b) eralariga xos biologik progresslarni aniqlang.  
 1) qushlarda to'rt kamerali yurak ; 2) qirqquloqsimonlarda urug';  
 3) hasharotlarda qanot; 4) stegosefallarda besh barmoqli oyoqlar;  
 5) sutemizuvchilar jun qoplamasi; 6) sudralib yuruvchilar qal'in po'choq bilan qoplangan tuxum  
 A) a-3,4; b-1,2 B) a-2,6; b-1,5 C) a-1,4; b-5,6 D) a-1,3; b-2,5
46. Organizm (a) va biogeotsenozi (b) darajadagi hodisalarini aniqlang.  
 1) gomologik xromosomalor orasida konyugatsiya jarayoni; 2) kapalak qurtining metamorfozi; 3) genlar dreyfi; 4) translokatsiya; 5) lishaynikda suvo't va zamburug'ning o'zaro munosabati; 6) qirg'ovulning kenja turning paydo bo'lishi; 7) yaylovda o'suvchi o'simliklar va o'txo'r hayvonlarning o'zaro munosabati  
 A) a-3,4; b-7 B) a-2,6; b-3 C) a-2,5; b-2 D) a-1,2; b-3,5
47. Birlamchi konsument (a), ikkilamchi konsument (b) umurtqali organizmlar ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 1) kojan; 2) ko'l baqasi; 3) O'rta osiyo toshbaqsi; 4) soxta kurakburun; 5) chuchuk suv gidersi; 6) botqoq toshbaqsi; 7) zlatka; 8) kabarga; 9) termit; 10) karkidon  
 A) a-4,7; b-1,2  
 B) a-6,10; b-3,4  
 C) a-8,10; b-1,6  
 D) a-7,9; b-4,5
48. Qaysi belgilarning irsiylanishi polimer genlar faoliyatiga bog'liq emas?  
 1) piyobosh rangining oq bo'lishi; 2) qoramollarda sutning miqdori; 3) itlarda yungning oq bo'lishi; 4) tovuqlarda patning qora rangda bo'lishi; 5) xo'rozlarda gulsimon tojining irsiylanishi; 6) lavlagida qandning miqdori; 7) xushbo'y no'xotda gultojbarglarning oq bo'lishi; 8) bug'doya donning qizil rangda bo'lishi  
 A) 3,6 B) 2,4 C) 1,8 D) 5,7
49. Agar poliomiyelit virusi orqa miyaning faqat bel segmentlarini zararlangan deb tasavvur qilsak, bu holatda quyidagi qaysi muskullar falajlanishi kuzatilmaydi?  
 1) bo'yinning teri osti muskuli; 2) sonning to'g'ri muskuli; 3) ko'zning aylana muskuli; 4) diafragma muskuli; 5) boldirning uch boshli muskuli 6) oyoq panjasini yozuvchi muskul; 7) deltasimon muskul; 8) qorinning qiyishq muskul; 9) tashqi qovurg'alararo muskul  
 A) 2,6,8 B) 6,9 C) 1,4,7 D) 3,5
50. II qon guruhiga ega rezus musbat, sog'lom o'g'il bolaning katta qon aylanish doirasasi arteriyalardagi qon plazmasida qanday moddalar bo'ladi?  
 A) *antitanalar, insulin, agglyutinin  $\beta$ , gemoglobin, glyukoza, fermentlar*  
 B) *gormonlar, vitaminlar, antitanalar, glyukoza, agglyutinogen A*  
 C) *antigemofil omil, agglyutinin  $\beta$ , gormonlar, vitaminlar, rezus omil*  
 D) *aminokislota, mochevina, kreatinin, tiamin, agglyutinin  $\beta$*
51. Odamdag'i o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.  
 1) vegetativ nerv sistemi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'r'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lning harakatida ishtirok etadi  
 A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Quyidagi belgililar orasidan sog'lom odamning siyidik qopiga xos bo'lмаган belgilarni ajraring.  
 1) murtak varaqasining endodermasidan rivojlanadi; 2) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 3) 1-2 bel umurtqalari ro'parasida joylashgan; 4) muskul hujayralarida bitta yadro va kalta miofibril tolachalari bo'ladi; 5) simpatik nerv sistemasi ta'sirida muskullari bo'shashadi; 6) siyidik qopni devorida proprioreceptorlari joylashgan; 7) adashgan nerv ta'sirida siyidik qopni muskullari qisqarib siyidik ajraladi  
 A) 1,2,3 B) 1,5,7 C) 3,6,7 D) 3,4,5
53. Sezgi analizatorlari haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.  
 A) *Terining derma qavatida issiqni va bosimni sezuvchi retseptorlar siyaplashni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurraq joylashgan.*  
 B) *Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.*
- C) *Qulquning suyak labirinti bilan pardalabirinti orasida endolimfa, pardalabirinti ichida perilimfa suyuqligi bo'ladi.*  
 D) *Harakat analizatorining oly nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stilog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.*
54. Metamorfoz jarayonida g'umbaklik bosqichini o'taydigan hasharotlar turkumlarini aniqlang.  
 A) *ikki qanotilar, pardaganotilar, tangachaqanotilar, chumolilar*  
 B) *qo'ng'izlar, arilar, yaydochilar, kapalaklar*  
 C) *ikki qanotilar, pardaganotilar, tangachaqanotilar, burgalar*  
 D) *qo'ng'izlar, arilar, kapalaklar, pushshalar, chumolilar*
55. Og'iz a'zosi kemiruvchi tipda tuzilgan chala o'zgarish bilan rivojlanadigan hasharotlarni aniqlang.  
 A) *Sariq suvarak, moviy ninachi, to'shak qandalasi*  
 B) *yashil temirchak, Osiyo chigirkasi, Turkiston termiti, halqali ninachi*  
 C) *Osiyo chigirkasi, suluv ninachi, kolorado qo'ng'izi, beshiktervatar*  
 D) *moviy ninachi, yashil temirchak, Turkiston termiti, burga*
56. Bosh skeleti miya qutisi, jag'lar, jabra ravoqlari va jabra qopqog'idan tashkil topgan baliqlarni aniqlang.  
 1) beluga; 2) qilquyruq; 3) gigant akula; 4) tikandum skat; 5) oqcha; 6) dengiz tulksi  
 A) 3,4,6 B) 2,5,6 C) 1,2,5 D) 3,4,5
57. Yirtqich sutevizuvchilar tishlariga xos xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.  
 a) oq ayiq; b) bo'rsiq; c) tyin; d) norka;  
 1) kurak tishlari yirik va o'tkir; 2) qoziq tishlari baquvvat va o'tkir; 3) kurak tishlari mayda; 4) qoshiq tishlari bo'lmaydi; 5) oziq tishlarning o'zgarishidan yirtqich tishlar hosil bo'lgan; 6) kurak tishlari hayoti davomida o'sib turadi  
 A) a-2,3,5; b-2,5; c-1,6; d-3,5  
 B) a-2,5; b-1,2,5; d-1,4,6  
 C) a-2,3,5; b-2,5; d-2,3  
 D) a-2,3,5; b-2,3,5; c-1,4,6
58. Fototrof organizmlarda parazitlik qiluvchi, hujayra qobig'i xitin moddadan iborat organizmlarni belgilang.  
 1) gommoz qo'zg'atuvchisi; 2) vertitsillium; 3) zang zamburug'i;  
 4) nematoda; 5) qorakuya; 6) nozema; 7) tripanosoma  
 A) 4,6 B) 1,6 C) 3,7 D) 2,5
59. Avtotrof ozigilanish xususiyatiga ega prokariot (a) va geterotrof ozigilanish xususiyati mavjud bo'lgan eukariot (b) organizmlarni aniqlang.  
 1) ossillatoriya; 2) oltingugurt bakteriyalari; 3) pichan bakteriyasi; 4) shumg'iya; 5) rafleziya; 6) qo'ziqorin; 7) midiya; 8) giatsint; 9) parpi  
 A) a-1,2; b-4,5,6  
 B) a-2,3; b-7,8,9  
 C) a-1,2,7; b-6,8  
 D) a-1,9; b-6,7,8
60. Eukariot hujayraga oid to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.  
 1) hujayra tarkibidagi mitokondriya, xloroplast va yadro qo'shqavat membranaga ega; 2) sitoskelet hujayraning tayanch elementidir; 3) lizosomalarni hosil qiluvchi organoidlar membranasiz tuzilishga ega; 4) o'simlik hujayrasining xitinsimon qobig'idagi maxsus teshikchalar orqali qo'shni hujayraning endoplazmatik to'r kanalchalarini o'zaro tutashadi; 5) mitokondriyaning kristalarida ko'plab fermentlar joylashgan  
 A) 2,5 B) 4,5 C) 3,5 D) 1,4
61. Organogenez (I) va gametogeneze (II) jarayonida sodir bo'ladi o'zgarishlarni aniqlang.  
 1) o'zak organlar majmui hosil bo'ladi; 2) yetilish davrida hujayralar meyoz usulida ko'payadi; 3) ektodermadan nevr nayi vujudga keladi; 4) spermatogenezning o'sish davrida hujayralar tez kattalashadi; 5) endodermadan ayirish organlari rivojlanadi; 6) qushlarning ovogenezida shakllanish davri bo'ladi  
 A) I-1,5; II-2,4  
 B) I-2,4; II-1,5  
 C) I-1,3; II-2,6  
 D) I-2,6; II-1,3
62. Quyida keltirilgan madaniy o'simliklarning orasidan bitta markazdan kelib chiqqan o'simliklarni aniqlang.  
 1) tamaki; 2) sabzi; 3) arpa; 4) sholi; 5) ananas; 6) banan; 7) oshqovoq; 8) kartoshka

- A) 2,6,8   B) 1,5,8   C) 2,4,7   D) 1,3,6
- 63.** HaeIII restriktazasi uchun xos belgilarni ko'rsating.  
 A) *to'rtta nukleotid jufiligin taniydi, tarkibi bo'yicha transpazona o'xshaydi*  
 B) *peptid bog'mayjud, to'rtta nukleotid jufiligin taniydi*  
 C) *vodorod bog'mayjud, tarkibi transpazon bilan o'xshash*  
 D) *DNKni yopishqoq uchlar hosil qilib kesadi, peptid bog'larni uzadi*
- 64.** Qaysi o'simlikning bargi oddiy yonbargchasi (a) va murakkab yonbargchali (b) bo'ladi?  
 1) lavlagi; 2) yantoq; 3) baliqko'z; 4) tok; 5) shirinmiya; 6) kanop; 7) no'xot; 8) yeryong'oq  
 A) *a-1,2,3; b-7,8*  
 B) *a-1,3; b-5,7,8*  
 C) *a-2,3,4; b-5,7,8*  
 D) *a-4,6; b-5,8*
- 65.** Nastarin qaysi jihatlari bilan tokka o'xshaydi?  
 1) urug'lanishdan so'ng meva hosil qilishi; 2) gullarning qiyshiqligi; 3) ro'vak to'pgul hosil qilishi; 4) barglarining novdada joylashuvi;  
 5) hayotiy shakli; 6) gulpojasining shoxlanishi  
 A) *I,3*   B) *2,5*   C) *4,6*   D) *4,5*
- 66.** "Gullari mayda, bir yoki ikki jinsli, gulkosachabarglari va gultojibarglari beshtadan, ayrimlarida gulqo'rg'oni yaxshi taraqqiy etmagan"  
 Ushbu ta'rif qaysi oila uchun xos ekanligini aniqlang.  
 A) *bug'doydoshlar*   B) *ziradoshlar*   C) *sho'radoshlar*   D) *piyozdoshlar*
- 67.** Qaysi o'simlikning bargi oddiy yonbargchali (a) va murakkab yonbargchali (b) bo'ladi?  
 1) yantoq; 2) tok; 3) g'o'za; 4) partenotsissus; 5) burchoq; 6) liftok;  
 7) shirinmiya; 8) olma  
 A) *a-6,8; b-1,5,7*  
 B) *a-1,2; b-4,5,7*  
 C) *a-2,3,8; b-1,4,5,7*  
 D) *a-2,4,6; b-5,7*
- 68.** Spirogira (I) va ossillatoriya (II) uchun xos bo'lgan belgilarni toping.  
 1) hujayra markazi xujayra bo'linishida ishtirot etidi; 2) tarkibida xlorofill pigmenti mayjud; 3) erkin azotni o'zlashtiradi; 4) irlsiy material yadroda joylashgan; 5) donador endoplazmatik to'nda oqsillar sintezlanadi; 6) mitokondriyada kislorodli oksidlanish sodir bo'lad  
 A) *I-3,6; II-4,5*   B) *I-1,4; II-5,6*   C) *I-3,5; II-2,4*   D) *I-3,6; II-2,4*
- 69.** Qarag'aytoifa bo'limiga mansub barcha o'simliklar haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
 A) *Tuxum xujayrasi urug'chili qubbalaridagi arxegoniya yetiladi*  
 B) *Urug'chili qubbalaridagi tangachalarida 2 tadan chang donasi yetiladi*  
 C) *Hayotiy shakli daraxti, buta va o't osimliklardan iborat bo'lib, urug'i qubbalarida ochiq holda yetiladi*  
 D) *Barglari och yashil tusda, ignasimon bo'lib novdada ikkitadan bo'lib joylashadi*
- 70.** Qirqulolarda murtakdan rivojlanuvchi bo'g'inda qanday qismlar hosil bo'ladi?  
 1) ildizpoya; 2) barg; 3) poya; 4) rizoid; 5) sporangiy; 6) anteridiy; 7) sporalar; 8) sorus; 9) arxegoni; 10) gametalar  
 A) *2,5,8*   B) *4,7,8*   C) *4,6,9*   D) *1,3,10*
- 71.** Hindomalay biogeografik viloyatiga mansub sute Mizuvchi hayvonlarni aniqlang.  
 1) orangutan; 2) xongul; 3) gibbon; 4) kapachi; 5) maral; 6) kanna; 7) bambuk ayig'i; 8) gorilla; 9) skuns; 10) iguana  
 A) *I,3,7*   B) *5,8,10*   C) *2,4,6*   D) *3,7,9*
- 72.** Paleoarktik biogeografik viloyatiga mansub tuyoqli sute Mizuvchi hayvonlarni aniqlang.  
 1) zubr; 2) mufton; 3) sayg'oq; 4) koala; 5) maral; 6) kanna; 7) kabarga; 8) tog' kiyigi; 9) muskusli qu'y; 10) qunduz  
 A) *I,4,7*   B) *3,5,8*   C) *2,6,9*   D) *2,5,10*
- KIMYO**
- 73.** 0,2 mol natriy peroksidni regeneratsiya qilish uchun tarkibida hajm jihatdan 2% CO<sub>2</sub> tutgan havodan qancha hajm (litr, n.sh) zarur?
- A) 224   B) 896   C) 448   D) 112
- 74.** Qaysi birikmalarda kislorod +2 oksidlanish darajasini namoyon qiladi?  
 A) *KO<sub>2</sub>*  
 B) *OF<sub>2</sub>*  
 C) *H<sub>2</sub>O<sub>2</sub>*  
 D) *H<sub>2</sub>O*
- 75.** Quyidagi berilganlardan faqat oksidlovchilarni ajrating.  
 1) NaMnO<sub>4</sub>; 2) H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>; 3) H<sub>2</sub>S; 4) CrO<sub>3</sub>; 5) NH<sub>3</sub>; 6) HClO<sub>4</sub>  
 A) *I,2,3*   B) *I,2,4,6*   C) *4,5,6*   D) *I,2,5*
- 76.** Bir xil aminokislota qoldig'idan tarkib topgan 48 g dipeptid yetarli miqdordagi xlorid kislota eritmasida gidrolizlanganda 75,3 g modda hosil bo'ladi. Aminokislotani aniqlang.  
 A) *valin*   B) *alanin*   C) *glitsin*   D) *leysin*
- 77.** Qaysi aminokislota qizdirilganda akril kislota hosil boladi?  
 A) *β-aminopropan kislota*  
 B) *β-aminobutan kislota*  
 C) *a-aminopentan kislota*  
 D) *a-aminobutan kislota*
- 78.** 42,4 g akrilonitril gidrolizlanishidan necha gramm akril kislota hosil bo'ladi? ( $\eta=0,75$ )  
 A) *43,2*   B) *28,8*   C) *14,4*   D) *21,6*
- 79.** 0,5 mol noma'lum bir asosli to'yigan karbon kislota eritmasiga Na metali qo'shilganda 11,2 litr (n.sh) gaz ajralib chiqdi. Reaksiya sodir bo'lgan idishga yuqori bosim va temperatura ostida yetarlicha is gazi yuttilirilishi natijasida hosil bo'lgan mahsulot birinchi reaksiyadan ajralgan organik mahsulot bilan 34:55 massa nisbatda ekanligi aniqlandi. Noma'lum kislötaning 1 moli tarkibidagi sp<sup>3</sup> – gibriddlangan orbitallar sonini aniqlang.  
 A) *I2*   B) *4*   C) *16*   D) *8*
- 80.** <sup>38</sup>Cr va <sup>57</sup>Fe atomlari o'zaro izoton bo'lsa, x va y uchun quyidagi munosabatlardan qaysi biri o'rnihi hisoblanadi?  
 A) *y=x*   B) *y=x+2*   C) *x=y+2*   D) *x=y+1*
- 81.** 12 g MeOH bilan 0,15 mol sulfat kislota yoki necha gramm ortofosfat kislotani to'la neyratlash mumkin?  
 A) *6*   B) *9,8*   C) *14,7*   D) *4*
- 82.** 1,1,3-trimetilsiklobutanni necha xil degalogenli alkandan Zn metali ta'sir ettirib olish mumkin?  
 A) *I*   B) *4*   C) *2*   D) *3*
- 83.** O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kalib permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol CO<sub>2</sub> gazi, 0,2 mol benzoy kislota va 0,4 mol tereftal kislota hosil bo'ldi. Boshlang'ich uglevodorodlar massasini toping.  
 A) *20,1; 12*  
 B) *33,5; 80,4*  
 C) *46,9; 93,8*  
 D) *26,8; 53,6*
- 84.** Mol nisbatlari mos ravishda 3:2:1 bo'lgan etin, eten va etandan iborat aralashma 6,4 kg bromli suvni rangsizlantiradi. Agar eritmadiagi bromning massasi suvning massasidan 49 martta kichik bo'lsa, reaksiya uchun olingan etan massasini (g) aniqlang.  
 A) *12*   B) *3*   C) *9*   D) *6*
- 85.** Ko'zdan yosh oqizuvchi (1), nafasni bo'g'uvchi (2), qayt qildiruvchi (3) moddalarni aniqlang.  
 a) lyuzit;   b) xloropirkin;   c) fosgen;   d) iprit  
 A) *1-b; 2-d,c; 3-a*  
 B) *1-b; 2-c; 3-a,d*  
 C) *1-a; 2-c; 3-b,d*  
 D) *1-d; 2-c; 3-a,b*
- 86.** CO va CO<sub>2</sub> gazlar aralashmasining 16,8 litri (n.sh)da 14,5•N<sub>A</sub> dona elektron bo'lsa, aralashmaning massasini (g) toping.  
 A) *18*   B) *36*   C) *27*   D) *29*
- 87.** Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 30% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrlik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmi tarkibini aniqlang.

- A) 1/9; 2/3; 2/9  
 B) 2/5; 2/5; 1/5  
 C) 1/7; 3/7; 3/7  
 D) 1/4; 1/4; 1/2
88. Valent elektronining kvant sonlari  $n=4$ ;  $l=0$ ;  $m_l=0$ ;  $m_s=+1/2$  bo'lgan metallning oksidi va karbonatli tuzi mo'l miqdordagi xlorid kislotada eritilganda 3,36 litr (n.sh.) gaz hosil bo'lgan bo'lsa, reaksiyadan so'ng hosil bo'lgan tuzning massasini (g) aniqlang.  
 ( Reaksiya uchun olingan oksid va karbonatli tuzning mol miqdorlari teng)  
 A) 31,5 B) 25,1 C) 52,4 D) 44,7
89. 0,06 mol  $\text{CuSO}_4 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$  va  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  aralashmasining to'liq degidratlanishidan 0,2 mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.  
 A) 2:4 B) 4:5 C) 3:1 D) 5:1
90. Kinovar, grinokit, argentit minerallarining qaysi jihatni bir- biriga o'xshash?  
 A) tarkibida bir xil metallmas mavjud  
 B) molekulyar massasi bir xil  
 C) tarkibidagi barcha metallar aktivlik qatorida vodoroddan o'ngda turadi  
 D) tarkibida metall massa ulushi bir xil
91. 1 mol  $\text{C}_3\text{H}_6$  va  $\text{H}_2$  aralashmasi ( $D(\text{H}_2)=14,5$ ) yopiq idishda katalizator ishtirokida  $320^\circ\text{C}$  gacha qizdirildi. So'ngra harorat dastlabki holatga keltirilganda idishdagi bosim 20% kamaygan bo'lsa, reaksiyaning nazariy jihatdan unumini (%) toping.  
 A) 32,5 B) 35 C) 61,54 D) 20
92. 200 g 73,5% li sulfat kislotasi eritmasiga necha gramm suv qo'shilganda 49% li eritma hosil bo'ladi?  
 A) 250 B) 175 C) 100 D) 200
93. 200 g 43,1%  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$  eritmasiga yetarli miqdorda 100 ml  $\text{H}_3\text{PO}_4$  eritmasi qo'shildi. Bunda olingan eritmadiagi  $\text{NaH}_2\text{PO}_4$  tuzning massa ulushi  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$  tuzning massa ulushidan 3 marta kam bo'ldi. Qo'shilgan  $\text{H}_3\text{PO}_4$  eritmasining molyarligini aniqlang.  
 A) 1 B) 4 C) 2 D) 3
94. X g 40% li  $\text{CaBr}_2$  eritmasini to'yintirish uchun 20 g  $\text{CaBr}_2$  tuzidan qo'shish kerak. Tuzning ushbu haroratda eruvchanlik koeffitsiyenti 80 ga teng. Hosil bo'lgan to'yingan eritmaning massa ulushini (%) hisoblang.  
 A) 14,66 B) 33,3 C) 24,44 D) 44,4
95. Eritmadagi  $\text{H}^+$  ionlari  $\text{OH}^-$  ionlaridan  $10^4$  marta ko'p bo'lsa, eritmadagi pOH qiymatini toping.  
 A) 4 B) 9 C) 5 D) 10
96. 7,2 g metal kislotadan 6,72 litr (n.sh) vodorod siqib chiqarsa, 9,6 g metal qanday massadagi (g)  $\text{Fe}^{3+}$  ni siqib chiqaradi.  
 A) 5,6 B) 28 C) 15 D) 11,2
97.  $\text{Ca}(\text{ClO})_2 + \text{HCl} = \text{CaCl}_2 + \text{Cl}_2 + \text{H}_2\text{O}$  reaksiya bo'yicha oksidlovchi  $8 \cdot N_A$  ta elektron olinan bo'lsa, ajralgan gaz hajmini (l, n.sh.) toping.  
 A) 22,4 B) 56 C) 89,6 D) 67,2
98. Bir metal tuzining suvdagi eritmasi orqali 4 soat davomida 2,68 amper tok kuchi bilan o'tkazilsa, 8,4 g metal ajralib chiqadi. Tokka nisbatan unum 75% bo'lsa, metallning kimyoviy ekvivalentini aniqlang.  
 A) 32 B) 29 C) 26 D) 28
99. 14 g metall oksididan 27,75 g metall xloridi olingan. Shu metall hosil qilgan sulfid tuzining 0,3 mol massasini (g) aniqlang.  
 A) 26,4 B) 29,1 C) 21,6 D) 50,7
100. 1 mol metall gidroksid qizdirilganda 9 g suv hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan metall oksidining molyar massasi parchalangan metall gidroksidning molyar massasidan 63 g/mol ga ko'pligi ma'lum bo'lsa, reaksiyadan hosil bo'lgan metall oksid massasini (g) aniqlang.  
 A) 56 B) 54 C) 102 D) 72
101. Moylarning qotishini tezlashtirish uchun ularga sikkativlar deb ataladigan katalizator ishlataladi. Sikkativ sifatida ishlataladigan katalizatorni aniqlang.  
 A)  $\text{P}_2\text{O}_5$   
 B)  $(\text{CH}_3\text{CO})_2\text{O}$   
 C)  $\text{Pb}_3\text{O}_4$   
 D)  $\text{H}_2\text{SO}_4$
102. Baryi xlorid eritmasiga tegishli miqdorda  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  kristallogidratidan qo'shilganda 233 g cho'kma tushdi va 2,5 molyalli eritma hosil bo'ladi. Dastlabki baryi xlorid eritmasining massasini (g) aniqlang.  
 A) 524 B) 628 C) 208 D) 828
103.  $x\text{CaCO}_3 = y\text{CaCO}_3 + z\text{CaO} + z\text{CO}_2$  ifodada x, y, z koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatidagi nisbatlari 5:1:4:4 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.  
 A) 60 B) 80 C) 75 D) 50
104. Ozon va kislorod aralashmasi tarkibidagi ozon to'liq kislorodga aylanishi natijasida aralashma hajmi 35% ga oshadi. Boshlang'ich aralashmadagi gazlarning hajmisi nisbatini aniqlang.  
 A) 4:1 B) 1:3 C) 5:3 D) 3:2
105. Rux metalli ikki xil konsentratsiyali nitrat kislotalarda eritilganda ajralgan NO va  $\text{N}_2\text{O}$  larning hajmlari teng bo'lsa, reaksiyaga kirishgan Zn larning mol nisbatini aniqlang.  
 A) 3:8 B) 3:4 C) 2:1 D) 1:1
106. Quyidagi tuzlar gidrolizga uchraganda neytral muhit hosil qiladiganlarini ajrating.  
 1)  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$ ; 2)  $\text{K}_2\text{SO}_4$ ; 3)  $\text{CH}_3\text{COONH}_4$ ; 4)  $\text{NaNO}_2$ ; 5)  $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$ ; 6)  $(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Ca}$   
 A) 2, 6 B) 1, 4, 5 C) 1, 3, 4 D) 1, 3
107. Molekulyar massasi (m.a.b) 4 ta azot atomi massasiga teng alkenni aniqlang.  
 A) buten B) etilen C) penten D) propen
108.  $\text{C}_3\text{H}_x$ , tarkibli uglevodorod yonganda reaksiyaga kirishuvchi va hosil bo'luvchi moddalarning miqdorlari (mol) teng bo'lsa, x ning qiymati nechaga teng bo'ladi?  
 A) 2 B) 4 C) 6 D) 8